

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## **FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ**

**Muassis:** Farg'ona davlat universiteti.

«FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. ФерГУ» "Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal filologiya, kimyo hamda tarix fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 2 sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-nashriyot bo'lrimda tayyorlandi.

### **Tahrir hay'ati**

**Bosh muharrir**  
**Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.  
ZOKIROV I.I

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)  
BEZGULOVA O.S. (Rossiya)  
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)  
VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)  
ZAYNOBIDDINOV S. (O'zbekiston)

JEHAN SHAHZADAH NAYYAR (Yaponiya)  
LEEDONG WOOK. (Janubiy Koreya)  
A'ZAMOV A. (O'zbekiston)  
KLAUS XAYNSGEN (Germaniya)  
BAXODIRXONOV K. (O'zbekiston)

G'ULOMOV S.S. (O'zbekiston)  
BERDISHEV A.S. (Qozog'iston)  
KARIMOV N.F. (O'zbekiston)  
CHESTMIR SHTUKA (Slovakiya)  
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)

### **Tahririyat kengashi**

QORABOYEV M. (O'zbekiston)  
OTAJONOV S. (O'zbekiston)  
O'RINOV A.Q. (O'zbekiston)  
KARIMOV E. (O'zbekiston)  
RASULOV R. (O'zbekiston)  
ONARQULOV K. (O'zbekiston)  
YULDASHEV G. (O'zbekiston)  
XOMIDOV G'. (O'zbekiston)  
DADAYEV S. (O'zbekiston)  
ASQAROV I. (O'zbekiston)  
IBRAGIMOV A. (O'zbekiston)  
ISAGALIYEV M. (O'zbekiston)  
TURDALIYEV A. (O'zbekiston)  
AXMADALIYEV Y. (O'zbekiston)  
YULDASHOV A. (O'zbekiston)  
XOLIQOV S. (O'zbekiston)  
MO'MINOV S. (O'zbekiston)  
MAMAJONOV A. (O'zbekiston)

ISKANDAROVA Sh. (O'zbekiston)  
SHUKUROV R. (O'zbekiston)  
YULDASHEVA D. (O'zbekiston)  
JO'RAYEV X. (O'zbekiston)  
KASIMOV A. (O'zbekiston)  
SABIRDINOV A. (O'zbekiston)  
XOSHIMOVA N. (O'zbekiston)  
G'OFOUROV A. (O'zbekiston)  
ADHAMOV M. (O'zbekiston)  
XONKELDIYEV Sh. (O'zbekiston)  
EGAMBERDIYEVA T. (O'zbekiston)  
ISOMIDDINOV M. (O'zbekiston)  
USMONOV B. (O'zbekiston)  
ASHIROV A. (O'zbekiston)  
MAMATOV M. (O'zbekiston)  
SIDDIQOV I. (O'zbekiston)  
XAKIMOV N. (O'zbekiston)  
BARATOV M. (O'zbekiston)

**Muharrir:** Sheraliyeva J.

**Tahririyat manzili:**

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60

Sayt: [www.fdu.uz](http://www.fdu.uz). Jurnal sayti

Bosishga ruxsat etildi:

Qog'oz bichimi: - 60×84 1/8

Bosma tabog'i:

Ofset bosma: Ofset qog'oz.

Adadi: 10 nusxa

Buyurtma №

FarDU nusxa ko'paytirish bo'limida chop etildi.

**Manzil:** 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.

**Farg'ona,  
2022.**

**E.Bozorov, M.Axmadjonov**

Tibbiyot elektronikasi fanining samaradorligini oshirishida “hamkorlikda” o’qitish texnologiyasining o’rni ..... 233

**N.Abdukarimova, Sh.Shuxratov**

Texnik mexanika fanini texnologik ta’lim yo’nalishida o’qitish uslubiyoti ..... 238

**N.Raxmatova, Sh.Shuxratov**

Texnologiya ta’limida innovatsion yondoshuv asosida o’quvchilarda texnologik kompetensiyalarni shakllantirish ..... 242

**B.Mamatojiyeva, Sh.Shuxratov**

Yog’och materiallaridan murakkab bo’lмаган detallar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi ..... 248

**Sh.Ashirov, D.Mirzayev**

Akademik litseylarda fizika fanini o’qitishda integrativ darslar mazmunini takomillashtirish ..... 253

KIMYO

**D.Abbasova, A.Ibragimov, O.Nazarov**

Ephedra Equisetina bunge o’simligidan ajratib olingan efedrin alkaloidi ..... 257

**M.Ismoilov**

Qatronlar va neft kislotalari uchun adsorbentlar ..... 262

**N.Dexkanova, E.Abduraxmonov, F.Raxmatkariyeva, N.Jamoliddinova,**

Nax seolit vodorod sulfid adsorbsiya termodinamikasi ..... 267

**H.Qurbanov, M.Rustamov, D.Gafurova, M.Mirzoxidova**

Poliakrilonitril asosida yong’inga chidamli polimer mato olish ..... 274

**I.Asqarov, M.Akbarova, Z.Smanova**

Qon bosimining oshishi kasalligida ishlataladigan sintetik dorilarning inson organizmiga ta’siri ..... 279

**I.Askarov, N.Tulakov, Z.Abduraimov, N.Islamova**

1`-karboksiferrotsenil tiokarboksamid sintezi ..... 283

**H.Rahimova, A.Ibragimov**

*Phlomoides Canescens* o’simligining uchuvchan moddalarini tadqiq etish ..... 289

**N.Qutlimuatov**

Mahalliy xomashyolar va chiqindilar asosida olingan anionitning kimyoviy barqarorligi va sorbsion xossasi ..... 293

**M.Jo’rayev, S.Xushvaqtov**

Polivinilxlorid plastikat asosida olingan sorbentning fizik-kimyoviy xossalari ..... 299

**I.Askarov, G’.Madrahimov, M.Xojimatov**

O-ferrotsenil benzoy kislotasini ayrim hosilalarining biologik faolligini o’rganish ..... 304

**S.Mukhammedov, I.Askarov, Kh.Isakov, M.Mamarakhmonov**

Furfurolidenkarbamidning elektron tuzilishi va kvant-kimyoviy xisobi ..... 308

**O.Tursunmuratov, D.Bekchanov**

Vermikulit asosida olingan yangi ionitga  $Cu^{2+}$  ionlarining sorbsiya kinetikasi va izotermasi ..... 311

**M.Ismoilov**

Karaulbozor neft fraktsiyalarini tahlili ..... 315

**M.Axmadaliyev, N.Yakubova**

Ishqoriy muhitda furfurolning kondensatsiyalanishi ..... 322

**B.Nu’monov**

Fosforkislotali-gipsli bo’tqasini koversiyalash asosida kompleks o’g’itlar olish ..... 328

**Sh.Yarmanov, S.Botirov, D.Bekchanov**

Tabiiy polimerlar asosida biosorbentlar olinishi va qo’llanilishi ..... 335

**G’.Xayrullayev, Sh.Kadirova, B.Torambetov, S.Botirova, Sh.Mavlonova**

3,3'-disulfanidilbis (1h-1,2,4-triazol-5-amin) sintezi ..... 341

GEOGRAFIYA

**Y.Axmadaliyev**

Mahalliy aholining shaharsozlik an’analardida landshaft omilining o’rni ..... 346

**K.Boymirzayev, H.Naimov**

Farg’ona botig’i yoyilma landshaftlarining geografik o’rganilishi va tadqiq etilishi ..... 352

**POLIAKRILONITRIL ASOSIDA YONG'INGA CHIDAMLI POLIMER MATO OLİSH****ПОЛУЧЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОЙ ПОЛИМЕРНОЙ ТКАНИ НА ОСНОВЕ  
ПОЛИАКРИЛОНИТРИЛА****OBTAINING FIRE-RESISTANT POLYMER FABRIC BASED ON POLYACRYLONITRILE**

**Qurbanov Hakimxon G'olibovich<sup>1</sup>, Rustamov Maxammasidik Kukanbaevich<sup>2</sup>, Gafurova Dilfuza Anvarovna<sup>3</sup>, Mirzoxidova Maftuna Murodjon qizi**

<sup>1</sup>**Qurbanov Hakimxon G'olibovich**

<sup>2</sup>**Rustamov Maxammasidik Kukanbaevich**

<sup>3</sup>**Gafurova Dilfuza Anvarovna**

<sup>4</sup>**Mirzoxidova Maftuna Murodjon qizi**

-O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doctoranti.

-Olmaliq kon-metallurgiya kombinati AJ guruh rahbari, kimyo fanlari bo'yicha PhD.

-O'zbekiston Milliy universiteti, kafedra mudiri, kimyo fanlari doktori, professor.

- O'zbekiston Milliy Universiteti Kimyo fakulteti talabasi.

**Annotatsiya**

*Poliakrilonitril matosining olovga chidamliligini oshirish maqsadida u dastlab karbamid bilan modifikatsiya qilindi. So'ngra, modifikatsiyalangan poliakrilonitril matoni ortofosfat kislotasi bilan qayta kimyoviy ishlov berildi va natijada olovbardosh PAN matosi sintez qilindi. Sintes qilingan N va P tutgan yong'inga chidamli poliakrilonitril materialining tarkibi va yonish darajasi Fureye infraqizil spektroskopiyasi, rentgenofazaviy tahibili va cheklovchi kislород ko'satkichi yordamida o'rganildi. Yong'inga chidamli poliakrilonitril matoning cheklovchi kislород ko'satkichi qiymati 20 marta yuvish davridan so'ng 28,5% ni tashkil etdi, bu esa yuvilishga bardoshliligidan va yong'inga chidamliligidan dalolat beradi.*

**Аннотация**

Для повышения огнестойкости полиакрилонитрильной ткани ее изначально модифицировали мочевиной. Затем модифицированную полиакрилонитрильную ткань обработали ортофосфорной кислотой, в результате был получен трудногорючий материал из ПАН. Состав трудногорючего модифицированного N и P содержащего полиакрилонитрильного материала исследовали методами инфракрасной Фурье-спектроскопии, рентгенофазового анализа, а скорость горения определена изучением предельного кислородного индекса. Значение предельного кислородного индекса модифицированных полиакрилонитриловых тканей составило 28,5% после 20 циклов стирки, что свидетельствует о ее стойкости к стирке и огнестойкости.

**Abstract**

*In order to increase the fire resistance of polyacrylonitrile fabric, it was originally modified with urea. The modified polyacrylonitrile fabric was then chemically treated with orthophosphate acid, resulting in the synthesis of a flammable PAN fabric. The composition and combustion rate of the refractory polyacrylonitrile material containing the synthesized N and P were studied using Fourier infrared spectroscopy, X-ray phase analysis, and limited oxygen index. The limited oxygen index value of fire-resistant polyacrylonitrile fabric was 28.5% after 20 wash cycles, which indicates its washing resistance and fire resistance.*

**Kalit so'zlar:** poliakrilonitril matosi, karbamid, modifikatsiya, yong'inga chidamli, cheklovchi kislород ko'satkichi, ortofosfat kislotasi.

**Ключевые слова:** полиакрилонитриловая ткань, мочевина, модификация, огнестойкость, лимитирующий кислородный индикатор, ортофосфатная кислота.

**Key words:** polyacrylonitrile fabric, urea, modification, fire resistance, limited oxygen index, phosphoric acid.

**KIRISH**

Sanoatda issiqlikni izolatsiya qiluvchi va yong'inga qarshi materiallar olishda, asosan, asbestos, shisha tolalar va polimer tutgan turli xil kompozitsiyalardan keng qo'llaniladi. Biroq, ushbu materiallardan foydalanishda bir qator kamchiliklar kuzatiladi, jumladan konserogenlik (asbest), mo'rtlik (shisha tolasi) va qizdirilganda gazsimon moddalarning faol chiqishi (koshma). Shuningdek, maxsus qiyin yonuvchan kompozitsiyalarni olish ko'p bosqichli va ko'p vaqt talab qiladi [1]. Bugungi kunda gazlamalar, polimer materiallar va yog'och kabi yonuvchan materiallardan keng miqyosda foydalanish yong'in xavfini keltirib chiqaradigan, inson va ijtimoiy mulk xavfsizligiga tahdid soladigan muammodir [2-4]. Tutun signalizatsiyasi, sprinklerlar va chiqish rejalaridan foydalanish

## KIMYO

yong'in oqibatidagi o'lim sonini kamaytirishi mumkin bo'lsa-da, yong'in xavfi hali ham saqlanib qolmoqda va bu umumbashariy hisoblanib, yalpi ichki mahsulotga ta'sir qiladi. Yonuvchan materiallarga yong'in paytida ularning yonishini to'xtatish yoki bostirish yoki yong'in paytida chiqadigan issiqlikni kamaytirish uchun ko'plab o't o'chiruvchilar ishtirot etadi. Buning natijasida juda katta iqtisodiy talafotlar yuzaga keladi.

Bugungi kunda olimlar tomonidan sanoatda va xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlatiladigan poliakrilonitril matosining yonish xususiyatini kamaytirish maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilishiga qaramasdan, bu borada amaliy echimini topmagan masalalar ham talaygina hisoblanadi [5, 6].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR


Poliakrilonitril tolesi yorug'lik va nurlanishga chidamliligi, elastikligi va bo'yalish xususiyati yuqoriligi tufayli to'qimachilik sanoatida keng qo'llaniladi [7]. Biroq, PAN ning chegaralangan kislorod indeksining pastligi (~ 18%), kislotali va ishqorli muhitlarga chidamsizligi va uning yonishi paytida ajralib chiqadigan ko'p miqdordagi moddalar yong'in xavfini oshiradi, bu esa PANning olovga chidamlilagini yaxshilash zaruratini keltirib chiqaradi [8]. Polimerlarning yong'in xavfini ikki toifaga bo'lish mumkin, ular termik va termik bo'lмаган xavflar. Termik xavfi polimerning yonishi paytida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori bilan bog'liq bo'lib, bu yong'in tarqalishining asosiy omiliidir [9]. Termik xavfini issiqlik chiqarish tezligi yoki aniqrog'l, konusning kalorimetrik tahlili yordamida issiqlik chiqarish tezligi bilan tekshirish mumkin [7, 9]. Issiqlik chiqarish tezligi (yoki issiqlik chiqarishning eng yuqori darajasi) qanchalik past bo'lsa, yong'inga xavfsizligi shunchalik yuqori bo'ladi. Termik bo'lмаган xavf-xatarlarga tutun, shuningdek, zaharli va toksik xususiyatga ega bo'lмаган gazlar sabab bo'ladi [8, 10]. Yong'in paytida hosil bo'lgan tutun va kichik o'lchamdagи zarralar jabrlanuvchining ko'rishini yomonlashtiradi va zaharlashi mumkin. Bundan tashqari, zaharli gazlarning zaharlilik ta'siri ko'plab yong'in qurbanlarining qochish imkoniyatlarini idrok etishiga to'sqinlik qiladi [10, 11]. Shunday qilib, polimerlarning umumiy yong'in xavfsizligini oshirish yonuvchanlik, zaharli gazlar va tutunni hisobga olishni talab qiladi. Umuman olganda, fosfor va azot samarali olovga chidamlı elementlar bo'lib, ham kondensatsiyalangan, ham gaz fazasida ishlaydi [12].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tarkibida N va P tutgan olovga chidamlı matoni olish uchun PAN ni karbamid bilan yuqori haroratda kimyoiy modifikatsiya qilishning va ushbu matoga ortofosfor kislotasi bilan ishlov berishning muqabil sharoitlari aniqlandi. Reaksiya karbamid suyuqlanmasida zanglamas po'latdan bo'lgan avtoklavda olib borildi.

Nitron tolasining karbamid bilan modifikatsiyalash jarayoniga harorat va reaksiya davomiyligining ta'siri 413 dan 443 K gacha harorat oraliq'ida 1-5 soat davomida o'rganildi. Mazkur tadqiqotlar natijalari 1-rasmida keltirilgan.


Keltirilgan 1-rasmdan ko'rilib turibdiki, reaksiya davomiyligining ortishi SASi va tola massasining ortishiga olib keladi. Masalan, 423 K haroratda reaksiya davomiyligining 2 dan 5 soatgacha ortishi tola SASining 1,48 dan 3,09 mg-ekv/g gacha ortishiga olib keladi, shu bilan bir qatorda nisbatan yuqori haroratlarda (433-443K) jarayonning o'zgarmay qolishi kuzatiladi: 3 soatdan so'ng mahsulotning SASi deyarli o'zgarmay qoladi.



**1-rasm. Olingan tolalar SASining (0,1 n HCl) har xil haroratlarda reaksiya davomiyligiga bog'liqligi. 1, 2, 3, 4 – reaksiya harorati mos ravishda 413, 423, 433, 443K.**


Olingan natijalar asosida modifikatsiyalashning qulay sharoitlari harorat – 433K, reaksiya davomiyligi – 4 soat, bosim – 3 atm. ekanligi aniqlandi.

Olingan yong'inga chidamli materialning kimyoiy tuzilishini aniqlash uchun dastlabki hamda modifikatsiyalangan PAN tolalarni IQ-spektrlari olindi va tahlil qilindi. Natijalar 1- va 2-rasmda ko'rsatilgan.



**2-rasm. Dastlabki poliakrilonitrilning IQ-spektri.**

2-rasmda poliakrilonitril tolasining IQ-spektrini tahlili shuni ko'rsatdiki, nitronning IQ-spektrida  $2241\text{ sm}^{-1}$ da CN-guruhlari uchun valent tebranishlari,  $2920\text{ sm}^{-1}$ da  $\text{CH}_2$  guruhlari uchun valentli tebranishlari,  $1450\text{ sm}^{-1}$ da  $\text{CH}_2$  guruhlari uchun deformatsiya tebranishlari,  $1729\text{ sm}^{-1}$ da metilakrilat va itaconik kislotadagi  $\text{C=O}$  guruhlari uchun deformatsiya tebranishlari borligi aniqlandi.




**3-rasm. Karbamid va ortofosfat kislotasi bilan modifikatsiyalangan poliakrilonitrilning IQ-spektri**

3-rasmda ko'rinib turibdiki, modifikatsiyalangan PAN tolalarning IQ-spektrida –CN guruhgaga tegishli bo'lgan  $2241\text{ sm}^{-1}$  sohada yutilish intensivligining pasayishi kuzatildi. Bu esa –CN guruhlarning reaksiyaga kirishganini ko'rsatadi. IQ-spektrida  $3217\text{ sm}^{-1}$  sohada –OH va –NH<sub>2</sub> guruhlarga tegishli bo'lgan yangi kengaytirilgan yutilish sohada va  $1246\text{ sm}^{-1}$ da  $>\text{C=NH}$  guruhlariiga tegishli deformatsion tebranishlari paydo bo'ldi. Modifikatsiyalangan namunadagi 923


## KIMYO

$\text{sm}^{-1}$  dagi cho'qqi esa O-P-O guruhiga tegishli. Ushbu natijalar modifikatsiyalangan poliakrilonitril matosi tarkibida azot va fosfor borligini tasdiqlaydi.



**4-rasm. PAN tolasining rentgenogrammasi.**

Modifikatsiyadan keyin PAN tolalari strukturasining o'zgarishlarini aniqlash maqsadida olingan yong'inga chidamli materiallar retgenofazaviy tahlili qilindi.



**5-rasm. Modifikatsiyalangan PAN tolsi rentgenogrammasi.**

Dastlabki PAN tolalari va karbamid bilan modifikatsiyalangan PAN ning rentgenogrammalarini taqqoslash shuni ko'rsatadi, kimyoiy modifikatsiyadan keyin barcha namunalarda polimerning kristall strukturalariga mos keladigan cho'qqilarning intensivligi pasayib va polimerning amorf strukturalarga ko'proq mos keluvchi cho'qqilar kengayishining ortishi kuzatildi, rentgen signallari intensivligining 5000 birlikdan pastda joylashishi polimer strukturasini amorflashganligini ko'rsatadi.

Shuningdek dastlabki PAN va modifikatsiyalangan PAN matolarining yuvishdan oldin va keyin cheklovchi kislorod ko'rsatkichlari qiymatlari aniqlandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Cheklovchi kislorod ko'rsatkichlari qiymati dastlabki PAN matosida 18% ni tashkil etdi. Olingan olovbardosh PAN matosida esa bu ko'rsatkich 30,4% ga oshganini ko'rsatdi, bu uning yaxshi olovga chidamlilik xususiyatga ega bo'lganini ko'rsatadi. Yong'inga chidamlilik – bu polimer materialarning muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Shuningdek suv bilan yuvilganda ham bu xususiyatini saqlab qolish olovbardosh matolar uchun muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Shuning uchun yong'inga chidamli PAN mato AATCC tets metodiga muvofiq yuvish testidan o'tkazildi va 20 ta yuvish davridan keyin mato og'irligining 0,37% gacha cheklovchi kislorod ko'rsatkichi qidirishini esa 6,25% gacha kamayganligi kuzatildi.

**1-jadval.**

**Yuvishdan oldin va keyingi matolarning cheklangan kislorod ko'rsatkichi qiymatlari**

Namuna	Yuvilish davrlaridagi cheklangan kislorod ko'rsatkichi %				
	0	5	10	15	20
PAN	18	-	-	-	-
M-PAN	30,4	29,2	28,7	28,3	28,5

Yuvish davrlarining uzayishi bilan olovbardosh PAN matosining cheklovchi kislorod ko'rsatkichi qiymatlari mos ravishda kamaydi, va bu qiymat 20 yuvish davridan keyin 28,5% ni tashkil qildi, bu yaxshi yuvishga chidamliligi va yong'inga chidamliligini ko'rsatadi. Bu fosforni o'z ichiga olgan guruhlarning kovalent bog'lanishining mavjudligi bilan bog'liq.

### XULOSA VA TAKLIFLAR.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, poliakrilonitril asosida N va P saqlagan yong'inga chidamlili poliakrilonitril mato olish uchun poliakrilonitrilni karbamin bilan modifikatsiyalash va ortofosfor kislotasini biriktirish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshirildi. 2 va 3 – rasmlardagi IQ spektlar tahlili shuni ko'rsatadiki birinchi namunadagi CN-guruhlarga tegishli piklarning kamyib o'rnida  $-NH_2$ ,  $-C=NH$ , va O-P-O guruhlarga tegishli bo'lgan yangi piklarni paydo bo'lganini ko'rish mumkin. Modifikatsiyadan keyin PAN tolalari tarkibidagi o'zgarishlarni aniqlash uchun o'tkazilgan rentgenostrukturaviy analiz shuni ko'rsatdiki, kimyoviy modifikatsiyadan so'ng barcha namunalar polimerning kristall holati yo'qolib amorf holatga o'tganini ko'rsatdi. PAN namunalarini yonish xususiyati tekshirilganda cheklovchi kislorod indeksi 18 % dan 30,4 % gacha ortganini va 20 ta yuvish davridan so'ng bu ko'rsatkich 28,5 % gacha saqlanib qolganini ko'rish mumkin. Bu natijalarning barchasidan yong'inga chidamlili PAN matoni olish ishlari muvaffaqiyatli amalga oshganligini bilish mumkin.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кейбал Н.А., Лобанова М.С., Каблов В.Ф., Бондаренко С.Н., Жукова Г.А. Огнезащитная композиция.( Fire retardant composition.) Патент РФ. N2487151 C1 опубликовано 10.07.2013
2. Khose R. V. Pethsangave, P.H. Wadekar, S. Some. Novel approach towards the synthesis of carbon-based transparent highly effective flame retardant (Uglerod asosidagi yuqori samarali olovni to'xtatuvchining sinteziga yangi yondashuv)//Carbon. – 2018. – Т. 139. – С. 205-209.
3. Costes L. Laoutid, S. Brohez, P. Dubois. Bio-based flame retardants (Bio-asosli olovga chidamlili moddalar). //Materials Science and Engineering: R: Reports. – 2017. – Т. 117. – С. 1-25.
4. Alongi J., Han Z., Bourbigot S. Intumescence: Tradition versus novelty (An'anaga qarshi yangilik). A comprehensive review //Progress in Polymer Science. – 2015. – Т. 51. – С. 28-73.
5. Tan S. J. J. Yue, X.-C. Hu, Z.-Z. Shen, W.-P. Wang, J.-Y. Li, T.-T. Zuo, H. Duan, Y. Xiao, Y.-X. Yin, R. Wen, Y.-G. Guo,. Nitriding-interface-regulated lithium plating enables flame-retardant electrolytes for high-voltage lithium metal batteries (Nitridlash interfeysi bilan boshqariladigan litiy qoplamali yuqori voltli litiy metall batareyalar uchun olovga chidamlili elektrolitlar.) //Angewandte Chemie. – 2019. – Т. 131. – №. 23. – С. 7884-7889.
6. L. Dong, C. Hu, L. Song, X. Huang, N. Chen, L. Qu. A large-area, flexible, and flame-retardant graphene paper (Keng ko'lamli, moslashuvchan va olovga chidamlili grafen qog'oz) //Advanced Functional Materials. – 2016. – Т. 26. – №. 9. – С. 1470-1476.
7. Y. Ren, Y. Zhang, Y. Gu, Q. Zeng.. Flame retardant polyacrylonitrile fabrics prepared by organic-inorganic hybrid silica coating via sol-gel technique (Olovga chidamlili poliakrilonitril matolar, organik-noorganik gibriddi silika qoplamasini bilan sol-gel texnikasi orqali tayyorlangan.)//Progress in Organic Coatings. – 2017. – Т. 112. – С. 225-233.
8. X. Yan, W. Zhou, X. Zhao, J. Xu, P. Liu.. Preparation, flame retardancy and thermal degradation behaviors of polyacrylonitrile fibers modified with diethylenetriamine and zinc ions (Dietilenetriamin va rux ionlari bilan modifikatsiyalangan poliakrilonitril tolalarini tayyorlash, olovga chidamliligi va termal degradatsiyasi.) //Journal of Thermal Analysis and Calorimetry. – 2016. – Т. 124. – №. 2. – С. 719-728. <https://doi.org/10.1007/s10973-015-5180-1>.
9. Y. Gao, J. Wu, Q. Wang, C.A. Wilkie, D. O'Hare.. Flame retardant polymer/layered double hydroxide nanocomposites (Olovga chidamlili polimer/qatlamlili ikki gidroksidli nanokompozitlar) //Journal of Materials Chemistry A. – 2014. – Т. 2. – №. 29. – С. 10996-11016.<https://doi.org/10.1039/C4TA01030B>.
10. A. Palanisamy, N. Salim, B. Fox, P. Jyotishkumar, T. Pradeep, N. Hameed.. A facile method to fabricate carbon nanostructures via the self-assembly of polyacrylonitrile/poly (methyl methacrylate-b-polyacrylonitrile) AB/B' type block copolymer/homopolymer blends (Poliakrilonitrilni AB/B tipidagi sopolimerlash orqali o'z-o'zidan yig'ish orqali uglerod nanostrukturalarini ishlab chiqarishning oson usulsi) //RSC advances. – 2016. – Т. 6. – №. 61. – С. 55792-55799. ,<https://doi.org/10.1039/C6RA09823A>.
11. Y. Li, S. Li, Y. Wang, J. Wang, H. Liu, X. Liu, L. Wang, X. Liu, W. Xue, N. Ma,. Electrochemical synthesis of phosphorus-doped graphene quantum dots for free radical scavenging (Erkin radikallarni tozalash uchun fosfor qo'shilgan grafen kvant nuqtalarining elektrokimyoiv sintezi) //Physical Chemistry Chemical Physics. – 2017. – Т. 19. – №. 18. – С. 11631-11638. <https://doi.org/10.1039/C6CP06377B>.
12. A. Aksit, N. Onar, B. Kutlu, E. Sergin, I. Yakin.. Synergistic effect of phosphorus, nitrogen and silicon on flame retardancy properties of cotton fabric treated by sol-gel process (Fosfor, azot va kremniyning sol-gel jarayoni bilan ishlov berilgan paxta matosining olovga chidamlilik xususiyatlariga sinergik ta'siri) //International Journal of Clothing Science and Technology. – 2016.